

# Matematika fani bo'yicha master-class mashg'ulotlari

2020-yil 18-avgust kuni professor O'tkir Roziqovning "Matematikaning inson hayotidagi o'rni" mavzusida navbatdagi master-class mashg'ulotlari bo'lib o'tdi.



Master-class mashg'ulotining kirish qismida O'zR FA Matematika instituti faoliyati haqida batafsil ma'lumot berildi. Undan so'ng, maktab o'qituvchilari va yoshlar uchun matematika fanining hayotiy tadbiqlari va ularni o'quvchilarga qanday usullarda tushuntirish kerakligi haqida ma'ruza qilindi. Ma'ruza so'nggida maktab o'qituvchilari bilan savol-javoblar bo'lib o'tdi.

Eslatib o'tamiz, "Matematikaning inson hayotidagi o'rni" mavzusidagi navbatdagi master-class mashg'uloti 2020-yil 25-avgust kuni soat 11:30 da o'tkaziladi.

Zoom havolasi: <https://us02web.zoom.us/j/4436306813>

Identifikator: 443 630 6813